

**BUXOROLIK JADID SADRIDDIN AYNIYNING HAYOTI VA FAOLIYATI.
ЖИЗНЬ И ТВОРЧЕСТВО ЖАДИДА САДРИДДИНА АЙНИ ИЗ БУХАРЫ.
THE LIFE AND WORK OF JADID SADRIDDIN AYNIY FROM BUKHARA.**

Tarix fanlari

Hikmatullayev Sherzod Hikmatullayevich

NavDPI“ Ijtimoiy-gumanitar fanlarni

o`qitish metodikasi (Tarix)” magistranti

E-mail:sherzodhikmatullayev4@gmail.com

Tel: 973778899

ORCID 0009-0003-4015-1081

Ҳикматуллаев Шерзод Ҳикматуллаевич

магистрант Навоийского

государственного педагогического института

Hikmatullayev Sherzod Hikmatullayevich

undergraduate student of

the Navoi State Pedagogical Institute

Аннотатсия. Mazkur maqolada Buxoro amirligi va O'zbekistonSSR shoiri va yozuvchisi, ulkan adib, jadid Sadridin Ayniyning hayoti va faoliyati, uning assarlari haqida ma'lumotlar berib o'tilgan. Sadridin Ayniyning o'z davrining etuk allomasi va buyuk ijodkori ekanligi aks ettirilgan.

Калит so'zlar: Buxoro, G'ijduvon, Amir Olimxon, Mir Arab, Guli sulx, Odina, Doxunda, Sudxo' rning o'lim, Podpalov.

Аннотация. В этой статье представлена информация о жизни и деятельности поэта и писателя Бухарского эмирата и Узбекской ССР, великого писателя, жадиди Садриддина Айни, его произведениях. Отражено, что Садриддин Айни был зрелым ученым и великим творцом своего времени.

Ключевые слова: Бухара, Гиждуван, Амир Олимхан, мир Араб, Гули сулх, Одина, Дохунда, смерть узурпатора, Подпалов.

Abstract. This article provides information about the life and work of the poet and writer of the Bukhara Emirate and the Uzbek SSR, the great writer, Jadid Sadridin Ayniy, and his works. It is reflected that Sadridin Ayniy was a mature scientist and a great creator of his time.

Keywords: Bukhara, Gijduvan, Amir Alimkhan, mir Arab, Guli surkh, Odin, Dokhunda, death of the usurper, Podpalov.

“Agar S.Ayniyning katta hayoti mundarijasini bir so‘z bilan ifoda etish lozim bo‘lsa, bu so‘z albatta „Haqiqat“ bo‘ladi.

I.S. Braginskiy

Kirish.

Hozirgi kunda jamiyatning barcha sohalarida tub o‘zgarishlar jarayoni davri ketmoqda. Bu jarayonda jamiyatning muhim sohalarida, xususan ta‘lim sohasida ham o‘zgarishlar ro‘y bermoqda. Ta‘lim tizimida tarix talimiga ham katta mas‘uliyatli vazifa yuklangan. Islohotlarning barcha bosqichlarida ijobiy jarayonlar kechmoqda, o‘tmishni xolisona yoritish zamon talabiga aylanmoqda. Mamlakatimizning birinchi Prezidenti Islom Abdug‘aniyevich Karimov 1998-yil 26-iyunda bir guruh etakchi tarixchi olimlar bilan bo‘lgan uchrashuvda tarixchi, arxeolog, sharqshunos olimlarga murojaat qilib, Vatan tarixini yaratish, uni xalqqa etkazish, milliy davlatchiligimiz tarixini yozish masalalariga to‘xtalib, “Davlatchiligimiz bugungi kunda o‘ta siyosiy masala bo‘lib turibdi. Nega daganda, O‘zbekistonda davlatchilik bo‘lmagan deb orqavarotdan tashviqot yuritayotgan, shu fikrni ongimizga singdirmoqchi bo‘layotgan, kerak bo‘lsa xalqni, jamoatchilikni bunga ishontirishga urinayotgan kuchlar hali bor... O‘zbek tarixchilarining bugungi kundagi asosiy vazifasi mana shu da‘voning puch ekanligini isbotlash, davlatchiligimizning ilmiy nuqtai-nazardan asoslangan tarixini yaratishdir” [1]-degan edi[2]

Sadriddin Ayniy ulug‘ adib, istedadli yozuvchi, buxoro amirligining jadidlar harakatining rahnamosi, keyinchalik O‘zbekistonSSR va TojikistonSSR davlat arbobi sanaladi. U murakkab davrda ijod qilib, o‘zining asralari bilan bizga XIXasr so‘nggi choragi va XX asr boshlaridagi hayotini tasvirlab ketgan. Uning asarlari biz uchun Buxoro amirligi boshqaruv tizimini, uning iqtisodiy ahvolini, aholining ijtimoiy tuzumini o‘rganishda asosiy manba bo‘lib xizmat qilmoqda.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya.

Sadriddin Ayniy hayotligidayoq G‘arb va Sharq mamlakatlarida tanilgan hamda bu kishining hayot faoliyati o‘zimizda va jahon miyosida keng o‘rganilgan, jumladan, chexialik doktor Manfred Lorents, eronlik professor Sayid Nafisiy, yaponiyalik Shimada Shizuo va Sharifa Tosheva, “Sadriddin Ayniy: Buxoro inqilobining tarixi”, afg‘onistonlik adib Sarvari Go‘yo, rossiyalik professor A. Boldo‘revlar, I.S.Braginskiy “Проблемы творчество Садриддина Айни”, “Жизн и творчество Садриддина Айни” Ch. Aytmatov, R.Xashim, Ferdinand Dyushin, L.Aragon, B.G.Gofurov, J.Rasulov, A.N.Samoylivech, I.I. Umnyakov, I.Krachkovskiy, V.Struve, A.N.Samoylivich, A.R.Qayumov, filologiya fanlari nomzodi M. Hasanov “Ayniy zamondoshlari xotirasida” professor A.Xabutdinov, J.Ikromiy, O.Tog‘ayev, Ch. Azizqulov, Z. Mullochonova, N.Fayzulloev, M. S. Asimov ham, mashhur darg‘alarimiz Abdulla Qahhor, Abdulla Qodiriy, G‘ofur G‘ulom, Oybek, Komil

Yashin, Mirzo Tursunzoda, Yahyo Yo'ldoshev va Zulfiyaxonimlar ham ustod Ayniy deb ardoqlagan va etirof etgan ulug' siymo edi.

Maqolani yoritishda dialektik metodga tayandik. Sadriddin Ayniyning hayoti va faoliyati tarixiy manbalar asosida o'rganilib, xolisliq nuqtai nazaridan yoritildi. Ayniqsa, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyevning tariximizni bugungi kun nuqtai nazardan o'rganish, yaratish orqali tarixiy xotirani tiklash, milliy madaniyatni rivojlantirish, an'anaviy qadriyatlar tizimini tadqiq va targ'ib etish borasidagi konseptual nazariy mulohazalari maqolaning metodologik asosini tashkil etadi.

Muhokama.

„Men 1878-yilda Buxoro oblasti, G'ijduvon rayoniga qarashli Suktari qishlog'ida dehqon oilasida tug'ildim.“ [3]

XX asr o'zbek adabiyotlariga ulkan hissa qo'shgan atoqli adib, olim va jamoat arbobi, yozuvchi Sadriddin Ayniy Buxoro amirligiga qarashli G'ijdivon tumanining Suktare qishlog'da 1878-yilning 15-aprelida dunyoga kelgan. Olti yoshidan maktabga qatnay boshlagan. Avval eski maktabda (1884—87), keyin 1890-yilda Buxoroga kelib madrasalar: Mir Arab (1890—91), Olimxon (1892—93), Badalbek (1894—96), Hoji Zohid (1896-99), Ko'kaldosh (1899-1900)da tahsil olgan. Madrasani tugatgach yangi usul maktablarida muallimlik qilgan. Sadriddin Ayniyning adabiy faoliyati XIX asrning 90-yillaridan she'r yozish bilan boshlangan. Uning birinchi asari Guli Sulx – qizil gul 1897-yil yaratilgan.

Ahmad Donish va ozarbayjon yozuvchisi Hoja Marog'iyning hamda jadid ma'rifatparvarlarining asarlari uning dunyoqarashiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. S.Ayniy Buxoroda yangi usuldagi maktablar ochadi, ular uchun o'quv qo'llanmalar, ommani ilm-ma'rifatga chaqiruvchi she'r va hikoyalardan iborat «Yoshlar tarbiyasi» (1909) darsligini tuzadi. «Yosh buxoroliklar» harakatida faol qatnashadi.

Asosan o'zbek va tojik tilida ijod qilgan. O'zbekiston Fanlar Akademiyasi faxriy a'zosi (1943), Tojikiston Fanlar Akademiyasi akademigi va birinchi prezidenti (1951—54), Tojikistonda xizmat ko'rsatgan fan arbobi (1940), filologiya fanlari doktori (1948), professor (1950). Bir necha yillar davomida Alisher Navoiy nomidagi Samarqand davlat dorilfununining professori va Tojikiston Fanlar Akademiyasi tashkil topgan kundan boshlaboq uning prezidenti sifatida xizmat qilgan. U 1954-yilning 15-iyunida Dushanbe shahrida vafot etgan.

1918—21 yillarda tojikcha, o'zbekcha marsh, qo'shiq va she'rlar yaratadi. «Buxoro jallodlari» (1922) povesti, «Buxoro mang'it amirligining tarixi» (1921) asarida Buxoroning ijtimoiy-siyosiy hayoti ifodalangan. «Odina», «Qiz bola yoki Xolida» (1924), «Tojik adabiyotidan namunalari» (1926), «Qul bobo yoki ikki ozod» (1928) kabi qissa, hikoya, ocherklari muhim ahamiyatga ega. Ayniy tojik va o'zbek

adabiyotlarining ming yillik tarixiy taraqqiyotida etishib chiqqan 200 dan ortiq shoir, tarixchi, olim, tazkiranavislar hayoti va ijodi haqida ma'lumot beradi.

S.Ayniy 1927-29 yillarda yirik romani «Doxunda»ni tojik tilida nashr ettirdi. 1934 yilda esa o'zbek tilida «Qullar» romanini yaratdi. Unda o'zbek va tojik xalqining yuz yillik hayoti aks etadi. Adibning «Eski maktab» (1935) asarida eski maktabdagi o'qish va o'qitish haqida hikoya qilinadi. Yigirmanchi yillarda e'lon qilingan qator hajviy asarlari, «Yana bu qaysi go'rdan chiqdi», «Puling halol bo'lsa, to'y qil» (1924), «Mashrab bobo», «Ye, to'nim» (1925), «Bilganim yo'q», «Kengash» (1926) kabi o'zbekcha feletonlari, hajviy she'r va maqolalari, ayniqsa, «Sudxo'rning o'limi» (1939) hajviy povesti yozuvchining mohir satirik ekanligini ko'rsatdi.

Muqanna va Temurmaliq boshchiligidagi xalq qo'zg'olonini aks ettiruvchi adabiy-tarixiy ocherklar yozdi. U to'rt qismdan iborat «Esdaliklar»ida (1949—54) Buxoroning o'tmish hayoti va o'sha davr ijtimoiy-madaniy muhitini yoritadi. S.Ayniy adabiyotshunos, tilshunos, sharqshunos olim sifatida «Firdavsiy va uning «Shohnoma»si haqida» (1934), «Kamol Xo'jandiy», «Shayxurrais Abu Ali ibn Sino» (1939), «Ustod Rudakiy» (1940), «Shayx Muslihiddin Sa'diy Sheroziy» (1942), «Alisher Navoiy» (1948), «Zayniddin Vosifiy» (uning «Badoe ul-vaqoe» asari haqida), «Mirza Abdulqodir Bedil», Muqimiy, G'afur G'ulom va Said Nazar haqidagi asarlari o'zbek va tojik adabiyotshunosligi va tanqidchiligida, «Fors va tojik tillari haqida», «Tojik tili» kabi ilmiy ishlari tojik tilshunosligida muhim voqea bo'ldi.

S.Ayniyning «Doxunda», «Qullar», «Sudxo'rning o'limi» va «Esdaliklar» asarlari xorijiy tillarga tarjima qilingan. Samarqandda S.Ayniy yodgorlik uy-muzeyi ochilgan (1967).

S.Ayniy nafaqat badiiy ijodiy faoliyati bilan adabiyotimizga hissa qo'shdi, balki yozuvchi yosh avlod vakillarining ijodiy faoliyatiga ham ilmiy va amaliy ta'sirini ko'rsatdi. Bu haqda rus olimi A.V.Podpalov quyidagilarni ma'lumot beradi: "YOsh adiblar o'z asarlarini o'qir edilar. Bunday suhbatlarda SHarof Rashidov, Asqad Muxtor, O'tkir Rashid va yosh qozoq shoiri Obitoy Turumbetov va boshqalar hozir bo'lar edilar. S.Ayniy yosh yozuvchi va shoirlarning asarlarini diqqat bilan tinglar edi. Yoshlarning asarlaridagi yutuq va kamchiliklarni esa samimiy, zarif iboralarda, engil mutoyiba bilan ko'rsatishga intilardi"[4]

Xulosa.

Xulosa qilib aytganda S.Ayniyning ilmiy, ijodiy va umuman hayot faoliyati xalqimizning ulkan ma'naviy merosiga aylandi. Bu meros kelajak avlod uchun ham ma'naviy ham ilmiy qimmatini yo'qotmagan holda xizmat qilib kelmoqda.

Uning asarlari bizga o'sha davrning muhitini, uning havosini sof holatda etkazishi bilan ajarib turadi.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. Karimov.I "Adolatli jamiyat sari" T.: "O'zbekiston" 1998-yil. 42-bet

2. Qodirov.I., Shirinova.F “So‘ngi sulola taqdiri”. T.: “Muharrir” 2009. 3-bet
3. Qodirov.I., Shirinova.F “So‘ngi sulola taqdiri”. T.: “Muharrir” 2009. 3-bet
4. S.Ayniy “Qisqacha tarjimai holim” T.: O‘zSSR Davlat badiiy adabiyot nashriyoti 1960. 3-bet
5. Подпалов. А.В “ Сурати С.Айний”, “С.Айний дар хотироти дўстон ва шогирдон” 190-191-бетлар
6. Karimov I.A.”Ona yurtimiz baxtu iqboli va buyuk kelajagi yo‘lida xizmat qilish-eng oily saodatdir”, T.”O‘zbekiston”2015-yil